

**Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti
tyutorlari va talabalar "Nasriddin Afandi festivali" doirasida BuxDU
uchun ajratilgan maydonda amaliy va badiiy san'at ko'rgazma yarmarkasi
hamda hajviy rasmlar ko'rik tanlovida talabalarning ishtirok etganligi
to'g'risidagi**

Bayonnomasi

Buxoro tuman

01.04.2025-yil

Qatnashdilar :

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutorlari O.Djumayeva, D.Hafizova, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev, fakultet talabalari va magistrilar Zaribboyev.M

Eshitildi:

Joriy yilning 1-aprel kuni Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev, tyutorlar va talabalar "Nasriddin Afandi festivalida faol ishtirok etidilar. Buxoroda 1 aprel – kulgi va mutoyiba kuni munosabati bilan «Nasriddin afandi» festivali o'tkazildi. Mazkur quvnoq festival xalq og'zaki ijodi qahramonlari sanalgan Nasriddin Afandi, Mulla Mushfiqiy, Yortiquloq kabi donishmandlarning zukkolik, hozirjavoblik fazilatlarini targ'ib qilish, sayyohlarga Buxoroning turizm yo'nalishidagi imkoniyatlarini namoyish etish orqali xalqlar o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Afandi festivali karvoni yurishi (marshi)da qatnashgan minglab aholi va ishtirokchilar «Ark» qo'rg'onidan «Labi Hovuz» majmuasiga bezatilgan manzilni bosib o'tishdi.

Festival tomoshalarining asosiy qismi Nodir Devonbegi madrasasi old maydoni hamda Xo'ja Nasriddin haykali o'rnatilgan bog' o'rtasida o'tkazildi. Festival Buxoro shahar hokimi Qurbon Tursunov hamda viloyat hokimi o'rinbosari Botir Shahriyorovlarning tabrik so'zi bilan ochildi. Bunda so'z san'ati ustalari, askiyachilar va yosh havaskorlar ijrosidagi ichakuzdi hangomalar, qo'shiqlar, teatrlashtirilgan tomoshalar xalqimizning betakror kulgu san'ati imkoniyatlari namoyishiga aylandi.«Nasriddin Afandi yoki Xo'ja Nasriddin XIII asrdan beri O'rta Osiyo, Yaqin Sharq, Xitoy, Kavkazorti va Bolqonda tarqalgan latifalar, rivoyatlar va ertaklardagi hajviy xarakterdir. Nasriddin Afandi haqiqatan ham mavjud bo'lgan yoki yo'qligi haqida hech qanday ma'lumot yo'q, ammo tarixchilar va yilnomachilar uning kelib chiqishining bir nechta manbalarini keltiradilar. Ulardan biriga ko'ra, Afandining vatani Buxoro, boshqasiga ko'ra, u umuman Xitoyda tug'ilgan. Ammo bularning barchasi ko'pgina mamlakatlarda uning sharafiga yodgorlik o'rnatilishiga xalaqit bermaydi. Shunga qaramasdan,

Buxoro shahrining markaziy maydonidagi Labi-Hovuz ansamblida 1979 yilda oʻrnatilgan Xoʻja Nasriddinning bronza haykali tengsiz va mashhur. Birgina haykalning oʻzi har kuni, har daqiqada Buxoroning qadim atmosferasiga quvonch va kulgu bagʻishlab turadi», - dedi viloyat Madaniyat boshqarmasi boshligʻi Sherzod Tilavov.

Yurt tinchligi va osoyishtaligi shu yerda yashayotgan xalqning sof niyati hamda oʻzaro hamjihatligiga koʻp jihatdan bogʻliq. Yurtimizda yashayotgan turli millat va elatlarning farovon hayotini taʼminlashda davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro minbarlarda baralla yangragan “maʼrifat va diniy bagʻrikenglik”ka chaqiriq butun dunyoda eʼtirof etildi. Bu tashabbus Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi. Mamlakatimizda milliy liboslar targʻibotini kuchaytirish, yosh avlod ongiga millat ruhiyatini singdirish, ular hayotiga oʻzbekona mentalitet meʼyorlarini olib kirish hamda milliy liboslarga mehr uygʻotish maqsadida turli xil milliy liboslar festivali va shu koʻrinishdagi tadbirlarning tashkil etilayotganligi ham bejiz emas.





Bayonlashtiradi:

tyutor:D.Hafizova

Buxoro davlat universiteti

Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti 2-1-MvU-24

**guruhi talabalarini bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida
"Istirohat bog'iga sayohat " tashkil etilganligi to'g'risidagi**

BAYONNOMASI

Buxoro shahar

4-aprel 2025-yil

Qatnashdi: 25 nafar

Qatnashdilar: Buxoro Davlat Unversiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti **2-1-MvU-24 guruhi tyutori** Hafizova Dilafro`z Shavkatovna guruh talabarlari va magistr Zaribboyev.M

2025-yilning 4-aprel sanasida Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutori D.Hafizova o'ziga biriktirilgan 2-1-MvU-24 guruhi talabalarini bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida "Vatan bo'ylab sayohat " shiori ostida Buxoro shahridagi "Samoniylar istirohat bog'i" bo'ylab sayohat tashkil qilindi.

— Бу боғ бир пайтлар 10 минг кишигача мижозни қабул қилган ва уларга маданий — кўнгилочар хизматлар кўрсатган. Истироҳат боғининг 8 та кириш дарвозаси бор, минг тупдан ортиқ мевали ва манзарали дарахтлар экилган, кўл ва ёзги амфитеатри билан бирга, 50 га яқин атракцион ва ўйин қурилмалари мавжуд. 2015 йилда боғда олиб борилган сўнгги таъмирлашда баландлиги 24 метрли арғимчоқ шаҳарнинг бошқа қисмидаги "Пахтаой" (ҳозирги "Ситора") болалар боғига кўчирилган, унинг ўрнига янги ва мустаҳкам 30 метрли чархпалак ўрнатилган.

Афсуски, боғнинг файзи йўқолган, "Шохруд" ариғидан тортилган сув таъминоти яхши бўлишига қарамай, маскан деворларига яқин ариқда сув оқмайди. Энг ачинарлиси, бу ерда кўланса ҳид билан боғлиқ муаммога дуч келиш билан бирга, хавфсизлик чораларига ҳеч ким кафолат бера олмайдиган 6 метрли сунъий кўл ҳам ўрин олган.

- Somoniylar maqbarasi kub shaklidagi bino bo'lib, tepa markazida yarim sharsimon gumbaz, burchaklarida to'rtta kichik qubba joylashgan. Qabr pishiq g'ishtdan qurilgan.
- Yodgorlik devorlari enli (1,8 metrgacha) bo'lganligi sababli yaxshi saqlangan. Qalin devorlar binoni vayronagarchilikdan himoya qilgan. Maqbara devorlari o'ziga xos naqshli tekis sirtga ega.

- Uning jabhasi yo‘q, maqbaraning hamma tomonlari bir xil. O‘rta Osiyo me‘morchiligida bu turdagi bino markazlashgan inshoot deb ataladi.
- Maqbara tepasi bo‘ylab oraliq ravoq cho‘zilgan bo‘lib, uning ichida qirqta deraza tirqishlari mavjud.
- Ustalar me‘moriy loyihalashda aralash usulda g‘isht terish, ya‘ni g‘ishtlarini turli ko‘rinishda joylashtirish orqali badiiy kompozitsiyaga erishganlar. Jahon me‘morchiligining hech bir yodgorligida bunday bezak uchramaydi.
- Kun davomida quyosh nuri yo‘nalishiga qarab maqbara devoridagi naqshlar o‘z shakli va rangini o‘zgartirib turadi. Ayniqsa, oy yorug‘ida bu manzara betakror ko‘rinish kasb etadi.
- Ismoil Somoniy hayotligida otasining qabri ustiga maqbara qurdirgan. Keyinchalik uning o‘zi ham shu yerga dafn etilgan.
- Afsonaga ko‘ra, yodgorlikni Chingizxon vayron qilmagan, chunki u maqbarani o‘rab turgan katta qabriston tufayli maqbarani payqamagan.
- Maqbara qurilishining taxminiy vaqti 892-907-yillar oralig‘ida bo‘lgan. Yodgorlik bir necha bor qayta ta‘mirlangan.
- 1993-yilda Somoniylar maqbarasi YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Sayohat davomida “Somoniyilar istirohat bog‘i” bo‘ylab joylashgan qadimiy arxitektura obidalarini tomosha qilishdi. Talabalar Buxoro shahrining qadimiy va boy tarixi haqida ma'lumotga ega bo'ldilar va ko'tarinki kayfiyat bilan uylariga qaytdilar.





BAYONNOMASI ASOSLOVCHI FOTO SURATLAR



Bayonlashtirdi:

fakultet tyutori D.Hafizova

Buxoro davlat universiteti
Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutori M.M.Avliyoqulovanning
Sog'lom turmush tarzi targ'iboti yuzasidan
davra suhbat
BAYONNOMASI

Buxoro shahri

“4” mart 2025-yil

Qatnashdilar : BuxDU shifokori M.Karimova va tyutor M.Avliyoqulova 2.1 Kim-
23 guruh talabalari va magistr Zaribboyev.M

KUN TARTIBI:

1. Talaba-yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;
2. Salomatlik va tinch hayotni qadrlashni o'rgatish;

ESHITILDI:

4-mart kuni Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutori M.Avliyoqulova talaba-qizlarga BuxDU shifokori M.Karimova bilan hamkorlikda sog'lom turmush tarzi hamda mavsumiy kasalliklarning oldini olish mavzusida suhbat o'tkazildi. Davra suhbatida OIV infeksiyasining kelib chiqish tarixi, yuqish yo'llari, OITSning salbiy oqibatlarini hamda profilaktik chora-tadbirlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi. Suhbat jarayonida talabalarga OITS kasalligidan himoyalalanish maqsadida tayyorlangan tarqatma materiallar taqdim etildi. OITS kasalligining yuqish yo'llari, kasallik belgilari va OIV faqat inson tanasining hujayralarida ko'payishi mumkinligi, tashqi muhitda virus tezda nobud bo'lishi haqida tushunchalar berildi. OITS OIV infeksiyasining yakuniy davri hisoblanadi. Virus bilan organizm o'rtasidagi kurash uzoq davom etib, virusning ustunligi bilan tugaydi. Shu vaqtdan OITS davri boshlanadi. Bu davrda odam organizmi har qanday mikrobgaga bardosh berish xususiyatini yo'qotadi. Jumladan, nafas, me'da-ichak, siydik yo'llarida doimo mavjud bo'lgan va kasallik qo'zg'ata olmaydigan mikroblar ham faollashib, turli xastaliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Davra suhbatida so'ngida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

QAROR QILINDI:

1. Talaba-yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilinsin;
2. Salomatlik va tinch hayotni qadrlashni o'rgatilsin;

Buxoro davlat universiteti

**Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutori M.M.Avliyoqulovaning
Sog'lom turmush tarzi targ'iboti yuzasidan
BAYONNOMASINI ASOSLOVCHI FOTOSURATLAR**





Bayonlashtirdi :d



M.Avliyovulova

**Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetida
Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan tashkil etilgan Zakovat
intellektual o'yini tashkil qilinganligi to'g'risidagi**

BAYONNOMASI

Buxoro tumani

27.03.2025 yil

KUN TARTIBI:

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetida talabalari orasida Intellektual salohiyatini oshirish hamda faol va iqtidorli talabalar bazasini shakllantirish

ESHITILDI:

Joriy yilning 27-mart kuni Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti xotin qizlar ishlari bo'yicha dekan maslahatchisi M.To'gayeva va fakultet tyutorlari talabalar va magistrilar (Zaribboyev.M) bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish hamda ularning intellektual qiziqishlarini qo'llab-

quvvatlash maqsadida talabalar o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi. Unda 2 ta jamoadan iborat talaba- qizlar faol ishtirok etdilar. Ushbu intellektual o'yinni tashkil etishdan maqsad, talaba-qizlarning ijodkorligini namoyon qilish. . Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetida talabalari orasida intellektual salohiyatini oshirish hamda faol va iqtidorli talabalar bazasini shakllantirish maqsadida. "Zakovat" intellektual o'yinini talabalar o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash maqsadida Buxoro davlat universitetida Zakovat intellektual o'yinini navbatdagi soni o'tkazildi. O'yin ko'tarinki ruhda, savollarni darajasi yuqori edi. O'yinda jamoalar faol ishtirok etdi..

QAROR QILINDI:

1. Buxoro davlat universiteti talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qolaversa, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish maqsadida Zakovat intellektual o'yinlari muntazam tashkil etilsin.

2. Zakovat intellektual o'yinini tashkil etish Buxoro davlat universiteti yoshlar kengashi Intellektual loyihalar koordinatoriga yuklatilsin.





Bayonlashtirdi:

Djumayeva.O